

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

O‘zDJTU rektori v.v.b.

B.Kulmatov

2023 yil “26” 06

**60320200 – AXBOROT XIZMATI VA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR
BAKALAVRIAT TA‘LIM YO‘NALISHI BO‘YICHA IJODIY (KASBIY)
IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

Toshkent – 2023

Tuzuvchilar:

A.Karimov – O'zDJTU media va kommunikatsiya fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, dotsent
A.Dadaxonov – Yohannes Gutenberg universiteti (Mayns) doktoranti

Taqrizchilar:

A. Nurmatov - O'zJOKU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
H.Saidov – "Boshlag'ich ta'lim" jurnali Bosh muharriri, filologiya fanlari doktori

Kirish

60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta'lim yo'nalishida ijodiy imtihon o'tkazishdan maqsad, abituriyentda mazkur sohada talab etiladigan ijodiy qobiliyat, mustaqil fikrlash mahorati, dalillash va xulosalar chiqarish kabi sifatning mavjudligini hamda uning dunyoqarashi va fikrlash doirasini aniqlashdir. Ijodiy imtihon jarayonida abituriyentlarning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratiladi:

- Ijodkorlik qobiliyati;
- Ijtimoiy muammolarni qay darajada anglay olishi;
- OAVda yoritilayotgan dolzarb mavzular va muammolardan xabardorligi;
- Dunyoqarashining kengligi, qiziqishlari doirasi;
- Pablik rileyshnz (jamoatchilik bilan aloqalar) sohasini qay darajada bilishi;
- Kasbni tanlash sabablari;
- Axborot xizmatlari va PR sohasi mutaxassisi bo'lishga moyilligi;
- Mustaqil fikr yuritishi;
- Yozma va og'zaki savodxonlik darajasi;
- O'z fikrini erkin, aniq, mantiqli va izchil ifoda etish mahorati;
- Yozma va og'zaki muloqotga moyilligi.

Ijodiy imtihonning tuzilishi

Ijodiy imtihon 2 bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqich abituriyentlarning axborot xizmatlari va PR sohasiga qiziqish darajasi, ijodiy qobiliyati va dunyoqarashini baholash bo'yicha og'zaki suhbat bo'lib, u quyidagi tartibda o'tkaziladi:

–abituriyentning ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan, e'fira uzatilgan, chop etilgan jurnalistik (publitsistik) materiallari komissiya a'zolari tomonidan o'rganiladi. Maqolalarda yoritilgan mavzularning tarixi yoki dolzarbligi yuzasidan abituriyent bilan suhbat o'tkaziladi. Suhbat jarayonida maqola yozilishiga sabab bo'lgan voqea-hodisa tahlil etiladi hamda abituriyentning dunyoqarashi, qiziqishlari, kimlar bilan suhbat o'tkazgani aniqlanadi;

–jamiyat va uning turli sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlardan xabardorlik darajasini aniqlash bo'yicha savollar beriladi;

–O'zbekiston va jahonda yuz berayotgan so'nggi yangiliklar, yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar, islohotlar bo'yicha savollar berish orqali abituriyentning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa sohalardagi o'zgarishlardan boxabarlik darajasi aniqlanadi;

–badiiy, publitsistik va jurnalistik ijod namunalari, ushbu sohalardagi namoyandalari, adiblar, ijodkorlar faoliyati, so‘nggi davrlarda yaratilgan adabiyotlar xususida savollar berish orqali talabgorning badiiy adabiyot, publitsistika hamda jurnalistika sohalaridagi bilimi baholanadi;

–suhbat davomida axborot xizmatlari va pablik rileyshnz (jamoatchilik bilan aloqalar) sohasiga tegishli savollar beriladi va shu tariqa abituriyentning bu sohadan xabardorlik darajasi belgilanadi. Shuningdek, abituriyentning muloqotga kirishuvchanligi, istiqbol rejaları, notiqlik qobiliyati, fikrni obrazli ifoda etish kabi fazilatları aniqlanadi.

Og‘zaki suhbat davomida so‘rashga tavsiya qilinadigan namunaviy savollar:

1. Siz nega aynan axborot xizmatlari va jamoatchilik bilan aloqalar sohasini tanladingiz? Bu tanlov kimning ta’sirida bo‘ldi?
2. Sizni jamoatchilik bilan aloqalar sohasida nima qiziqtiradi? Qachondan beri bu sohasiga qiziqasiz?
3. Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilganmisiz? Qachondan boshlab va kim bilan qancha vaqt mobaynida ijodiy hamkorlik qilgansiz?
4. OAVda materiallaringizni e’lon qilganmisiz? Qaysi OAVda nechta axborot materialingiz e’lon qilingan? Bu materiallar nima haqida? Materiallaringizni qanday yozgansiz, tarixini aytib bering.
5. Shu davrga qadar biror axborot xizmatiga tashrif buyurib, uning faoliyati bilan tanishganmisiz?
6. “Axborot urushi”, “axborot xuruji” haqidagi tushunchangiz?
7. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ni amalga oshirishda jurnalistlarning roli nimadan iborat deb hisoblaysiz?
8. Xalq bilan muloqot o‘rnatishda axborot xizmatlari va matbuot kotiblarining o‘rni haqida qanday fikrdasiz?
9. Jamiyatda ijtimoiy tarmoqlarning o‘rnini qanday baholaysiz?
10. O‘zbekistonda va xorijda faoliyat yuritadigan jurnalistlardan kimlarni taniysiz?
11. Sizga qaysi OAV ko‘proq yoqadi: gazeta, radio, televideniemi yoki internet? Buning sababini tushuntirib bering.
12. “Demokratiya” deganda nimani tushunasiz?
13. Televidenie nimasi bilan sizni qiziqtiradi? Qaysi telekenallar faoliyatini kuzatib borasiz?
14. Internet nima? Qaysi Internet saytlarini bilasiz?
15. Jamoatchilik bilan aloqalar nima? PR-men kim?
16. Fuqarolik jamiyati nima?
17. Fuqarolik pozitsiyasi deganda nimani tushunasiz?

18. Qanday mahsulotlar va xizmatlar reklama qilinishiga cheklov o'rnatilgan?
19. Agar Siz juda qiziq fakt topgan bo'lsangiz, lekin ushbu fakt kimningdir izzat-nafsiga tegadigan bo'lsa, nima qilasiz?
20. Qaysi tashkilotlarning matbuot kotiblarini bilasiz?
21. Sizning nazaringizda, matbuot kotibi qanday shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi kerak?
22. O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida o'qishdan nimalarni kutayapsiz?
23. Fuqarolarning ijtimoiy huquqlari deganda nimani tushunasiz?
24. Fuqarolarning siyosiy huquqlari deganda nimani tushunasiz?
25. Mashhur davlat arbobidan intervyu olish imkoniyati tug'lsa, qanday 5 ta asosiy savolni bergan bo'lar edingiz?
26. Sizningcha, jurnalistikada vaqt me'yori nima bilan o'lchanadi? (Jurnalistikada vaqtning ahamiyati qanday?)
27. Texnik jihatdan qurollangan blogerga kamida 3 ta narsa kerak deyilsa, nimalarni tavsiya qilgan bo'lar edingiz? Nima uchun?
28. Ommaviy axborot vositalari tizimi deganda nimalarni tushunasiz?
29. Matbuot anjumani (Press-konferensiya) deganda nimani tushunasiz?
30. Onlayn jurnalistikaning ahamiyati nimada?
31. O'zbekistondagi shoir va yozuvchilardan kimlarni taniysiz? Ularning ijodida nimalar e'tiboringizni tortadi, yoqadi?
32. Negativ xabar nega tez tarqaladi?
33. Mish-mishlarga ishonasizmi? Mish-mishlar qanday paydo bo'ladi? Fikringizni aniq misollar orqali asoslab bering.
34. PRning kompaniyalar rivojidadagi o'rni nimada deb o'ylaysiz?
35. Brend deganda nimani tushunasiz?
36. O'zingizni 5 va 10 yildan keyin kim sifatida ko'rasiz?
37. Qaysi mahalliy OAV ni doimiy kuzatib borasiz? Qaysi jihatlari bilan sizni jalb qiladi? Nimani o'zgartirishni tavsiya qilgan bo'lar edingiz?
38. Ijtimoiy tarmoqlarga munosabatingiz qanday? Ulardan foydalanishga bir kunda qancha vaqt saflaysiz va qanday maqsadlarda?
39. PRdan boshqa yana qaysi soha siz uchun qiziq?
40. Biror tashkilotni reklama qiladigan reklama-shior (slogan) o'ylab topa olasizmi?
41. Imij deganda nimani tushunasiz?
42. "Fuqarolar davlatga emas, davlat fuqarolarga xizmat qilishi lozim" degan tugshunchani izohlab bering.

Ikkinchi bosqich esse shaklida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

–esse mavzulari hozirgi kun muhim ijtimoiy-siyosiy, adabiy-tarixiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, vatanparvarlik va boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlanganligi hamda jurnalistik xususiyatga yo'naltirilgan va abituriyentning ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo'lishi nazarda tutiladi va fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tuziladi. Mavzular oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining raisi tomonidan tasdiqlanadi hamda muhrlangan maxsus konvertida qat'iy hisobot hujjatlari sifatida saqlanadi;

–qabul komissiyasining raisi yoki uning topshirig'i bilan rais o'rinbosari esse boshlanishidan 20 daqiqa avval fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga esse mavzulari solingan konvertlarni topshiradi va fan bo'yicha komissiya a'zolarini imtihon topshiruvchi guruhlariga taqsimlaydi;

–esse o'tkazilishi uchun 3 astronomik soat vaqt belgilanadi;

–esse betlari muhrlangan 12 varaqli daftarga yoziladi, qoralama uchun ham betlari muhrlangan qog'ozlar beriladi. Esse yozilgan daftar va qog'ozlarda yozma ish muallifini bildiruvchi, shartli belgilarning qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi;

–essening hajmi 5 betdan 10 betgacha deb belgilanadi;

–esse uchun belgilangan vaqt tugagandan so'ng, yozma ishlar qoralamalari bilan birga yig'ib olinadi va mas'ul kotibga yoki uning muoviniga topshiriladi;

–mas'ul kotib yoki uning muovini yozma ishlarni shifrlab, fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga tekshirish uchun topshiradi;

–yozma ishlar faqat oliy ta'lim muassasasi binosida va fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tekshiriladi;

–tekshirilgan esselar qo'yilgan ballari va tekshiruvchilarning imzolari bilan qabul komissiyasining mas'ul kotibi yoki uning muoviniga topshiriladi;

–mas'ul kotib yoki uning muovini insholarni deshifrovka qilib, imtihon qaydnomasiga abituriyentlarning familiyalari va olgan ballarini kiritadi;

–essega quyidagi yo'nalishlardan kelib chiqib mavzular belgilanadi: ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, vatanparvarlik, milliy iftixor va sog'lom turmush tarzi.

–ijodiy imtihon natijalari ikki kundan so'ng e'lon qilinadi.

Ijodiy imtihonni baholash mezonlari

Ijodiy imtihon yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha baholanadi.

Ijodiy imtihonda to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball miqdori

–93 ball.

Ijodiy imtihonning birinchi bosqichi, ya'ni og'zaki suhbat jarayonidagi savoljavobni baholash uchun ijodiy imtihonga ajratilgan maksimal ballning 33,3 foizi, ya'ni 31 ball belgilanadi.

Ijodiy imtihonning ikkinchi bosqichi, ya'ni esseni baholash uchun imtihonga ajratilgan maksimal ballning 66,6 foizi, ya'ni 62 ball belgilanadi.

Og'zaki suhbatni baholash mezonlari

Og'zaki suhbatga 0 – 31 ballgacha qo'yish mumkin.

№	Ballar qo'yish mezonlari:	Ballar
1.	Jurnalistika, PR (Jamoatchilik bilan aloqalar) va axborot xizmatlari haqidagi tasavvuri yuzaki, milliy jurnalistika va xalqaro jurnalistika to'g'risida tizimli bilimi yo'q, abituriyentning soha bo'yicha fikrlashi sayoz, OAVda e'lon qilingan materiallari yo'q, lekin jurnalist bo'lish istagi kuchli	0 – 6 ball
2.	Jurnalistika, PR (Jamoatchilik bilan aloqalar) va axborot xizmatlari haqida biroz tushunchasi bor, kasbga qiziqishi davri bir-ikki oydan ko'p, PR va jurnalistika sohalarining bog'liq va farqli jihatlari haqida yetarlicha tasavvuri bor, axborot xizmati va uning vazifalari bo'yicha tasavvuri bor, OAVda e'lon qilingan 1-3 kichik hajmli materiali bor	7 – 13 ball
3.	PR va axborot xizmatlari sohasiga 1-2 yildan beri qiziqadi, kasb haqida tasavvuri yaxshi, OAVni izchil ravishda kuzatib boradi, PR va jurnalistika sohalarining bog'liq va farqli jihatlari haqida yetarlicha tasavvuri bor, Bir qator matbuot kotiblarini taniydi, ularning ijodiga aniq misollar orqali baho bera oladi, e'lon qilgan 5-7 ta materiallari bor	14 – 19 ball
4.	PR va axborot xizmatlari sohasiga ko'p yildan beri qiziqadi, PRning jamiyat va tashkilotlar taraqqiyotidagi o'rnini chuqur tushunadi, Axborot xizmati vazifalari va matbuot kotibi faoliyatini misollar orqali tushuntirib bera oladi, Bir qator matbuot kotiblarini taniydi, ularning ijodiga aniq misollar orqali baho bera oladi, PR va jurnalistika sohalarining bog'liq va farqli jihatlari	20 – 25 ball

	haqida yetarlicha tasavvuri bor, matbuot anjumani va boshqa PR tadbirlari haqida tasavvurga ega e'lon qilgan 10-20 ta materiallari bor,	
5.	PR va axborot xizmatlari sohasiga ko'p yildan beri qiziqadi, axborot xizmatlariga tashrif buyurgan, ular ishi bilan yaxshi tanish, Axborot xizmati vazifalari va matbuot kotibi faoliyatini misollar orqali tushuntirib bera oladi, PRning jamiyat va tashkilotlar taraqqiyotidagi o'rni va roliga chuqur tavsif bera oladi, Bir qator matbuot kotiblarini taniydi, ularning ijodiga aniq misollar orqali baho bera oladi, PR va jurnalistika sohalarining bog'liq va farqli jihatlari haqida yetarlicha tasavvuri bor, matbuot anjumani va boshqa PR tadbirlari haqida yaxshi tasavvurga ega e'lon qilgan materiallari 20tadan ko'p	26 - 31 ball

Esseni baholash mezonlari: (ballar miqdori – 0 – 62 ball)

Esseni baholash mezonlari: (mazmuni – maksimal 20 ball; imloviy va uslubiy xatolar – maksimal 42 ball)

№	Баллар қўйиш мезонлари:	Максимал баллар
1.	12 tadan ortiq orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarga yo'l qo'yilgan	0 ball
2.	Ish mavzu bo'yicha yozilmagan	0 ball
3.	A) Mavzu sayoz ochilgan, raqam va dalillar yetarlicha keltirilmagan bo'lsa bo'lsa – 3 - 4 ballgacha, abituriyentning mavzu yuzasidan tasavvuri yuzaki, fikrlash doirasi tor bo'lsa, ishda erkin ta'sirli bayon bo'lmasa – 1 – 2 ballgacha; B) orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarning umumiy soni 12 tagacha bo'lsa - 1 - 7 ballgacha, ishda qo'pol uslubiy va imloviy xatolar uchramasa 8 – 12 ballgacha	4 + 12 = 17 балл.
4.	A) Mavzu muayyan darajada ochilgan, raqam va dalillardan biroz foydalanilgan bo'lsa-da, abituriyentning ifodada badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga intilganligi ko'rinib tursa – 7 – 8 ballgacha, tahlil qilishga harakat qilganligi sezilib tursa-yu, ammo tahlilda mantiqiy	8 + 21 = 29 балл.

	<p>xulosalar chiqarishda ojizligi sezilsa – 5 - 6 ballgacha;</p> <p>B) orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarning umumiy soni 10 tagacha bo'lganda - 13 – 19 ballgacha bo'lgan doirada baholanadi; ishda qo'pol uslubiy va imloviy xatolar uchramasa - 20 – 21 ballgacha;</p>	
5.	<p>A) mavzu ancha teran ochib berilgan, raqam va dalillardan o'rinli foydalanilgan hamda tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarishda iqtidor namoyon etilgan bo'lsa, til va uslubda ravonlik va obrazlilik, fikr-mulohazalarni erkin ifodalash sezilsa - 11–12 ballgacha; mavzu bir oz ochilgan, abituriyentning fikrlashi o'rtadan pastroq, jurnalistikani yaxshi tushunmagani sezilsa – 9 – 10 ballgacha;</p> <p>B) Orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarning umumiy soni 6-9 ta bo'lganda - 23 – 27 ballgacha, ishda qo'pol uslubiy va imloviy xatolar uchramasa - 28 – 29 ballgacha bo'lgan doirada baholanadi;</p>	12 + 29 = 41 балл.
6.	<p>A) mavzu ancha teran ochib berilgan, raqam va dalillardan o'rinli foydalanilgan, tahlil va mustaqil umumlashmalar chiqarishga intilish, mavzuni ochishda, mantiqiy fikrlashda harakat ko'zga tashlansa, til va uslubda ravonlik, obrazlilik, fikr-mulohazalarni erkin ifodalash ko'rinib tursa, ayrim mualliflarning mazkur mavzu yuzasidan bildirgan fikrlari mantiqli dalillar bilan rad etilsa yoki tanqid qilingan bo'lsa - 15 – 16 ballgacha; dalillar biroz yetishmasa, uslubda oqsashlar uchrasa, tahlil u qadar teran bo'lmasa - 13 – 14 ballgacha doirada baholanadi.</p> <p>B) ishda uslubiy va imloviy jihatdan uncha muhim bo'lmagan xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, ijodiy insho – 30 - 33 ballgacha; orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarning umumiy soni - 4-5 ta bo'lganda - 34 – 35 ballgacha bo'lgan doirada baholanadi;</p>	16 + 35 = 51 балл.
7.	<p>A) mavzu teran va har tomonlama ochib berilgan, raqam va dalillardan mahorat bilan foydalanilgan, mantiqiy, tahliliy xulosalar, umumlashmalar chiqarish qobiliyati yaqqol namoyon bo'lgan bo'lsa, til va uslubda ravonlik, obrazlilik, fikr-mulohazalarni erkin, aniq ifodalash ko'rinib tursa, mazmunga mos shakl tanlangan, ijodiy ishda o'rinli tarzda tanqidiy mulohazalar bildirilgan bo'lsa, mazmuni ochishda abituriyentning mustaqil fikrlash qobiliyati aniq ko'rinib tursa - 19 – 20 ballgacha; ishda umumiy xulosalar yetishmasa, fikrlarni umumlashtirishda mantiq oqsasa, fikrlar sintezi kamroq bo'lsa - 17 – 18 ballgacha baholanadi.</p>	20 + 42= 62 балл.

B) Ishda uslubiy va imloviy xatolar uchramasa, ijodiy insho - 40 - 42 ballgacha bo'lgan doirada baholanadi; orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarning umumiy soni 3-4 ta bo'lsa – 36 - 39 ballgacha baholanadi.	
---	--

Ijodiy imtihon bosqichlarida to'plangan ballar umumlashtirilib, yagona ball sifatida qaydnomaga kiritiladi. Qaydnoma belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, mas'ul kotib yoki uning muoviniiga takdim etiladi.

Ijodiy imtihon natijalarini apellyatsiya qilish tartibi

Ijodiy imtihon bosqichlari natijalari bo'yicha apellyatsiyaga arizalar faqat imtihon bosqichlari natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat mobaynida qabul qilinadi.

Murojaat mazmunida faqat o'zining ijodiy ishi va ballari xususida e'tiroz bo'lsa, qabul qilinadi. Lekin boshqa abituriyentlar ishlari va ballari haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Esse yozilgan daftar rasmiy hujjat sifatida belgilangan muddatgacha saqlanadi. Undan shaxsiy maqsadlarda nusxa olish, uni suratga tushirish va imtihonlar o'tkazilayotgan hududdan olib ketish mumkin emas.

Apellyatsiya qilish jarayonida abituriyentga qo'shimcha savol berishga ruxsat berilmaydi.

Ijodiy imtihonda olingan bahoni o'zgartirish faqat fan bo'yicha komissiyaning roziligi bilan va faqat apellyatsiya qiluvchi abituriyent ishtirokida oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Ijodiy imtihonning og'zaki suhbat natijalari apellyatsiyada qayta ko'rib chiqilmaydi.

Ijodiy imtihon o'tkazilishiga qadar apellyatsiyaga ariza berish va uni ko'rib chiqish tartiblari abituriyentlar e'tiboriga yetkaziladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son). // www.lex.uz 15.06.2023.

2. 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi. // <https://www.lex.uz> 7.02.2017.

3. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi // <https://lex.uz/docs/5841063>, 28.01.2022.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., “O'zbekiston”, 2016.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., “O'zbekiston”, 2017.
6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., “O'zbekiston”. 2017.
7. Mirziyoev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga // “Xalq so'zi” gazetasi 2018 yil 27 iyun.
8. Mirziyoev Sh.M. BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi. 2021 yil 22 fevral.
9. Blek S. Vvedenie v pablik rileyshnz. – M., “Feniks”, 1998.
10. Do'stmuhammad X. Jurnalist bo'lmoqchimisiz? – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
11. Jabborov Sh. O'zbekistonda kim yaxshi yashaydi. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
12. Toshev F. Jurnalistning noni qattiq. – Toshkent, 2009.
13. Nishonova G., Shukurova G., Qosimova N. va boshq. Zamonaviy media muhitda RR-xizmatlar. J.VIII. – T., “O'zbekiston”, NMIU, 2019. 512-b.
14. Qosimova N. Axborot xizmatlari uchun amaliy qo'llanma:jamoatchilik bilan samarali muloqot. – T., “BAKTRIYA PRESS”, 2014.
15. Muminov F. Pablik rileyshnz: istoriya i teoriya. T.: Ijod dunyosi, 2004, 32-b.
16. Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida <https://lex.uz/docs/4390513>.

	haqida yetarlicha tasavvuri bor, matbuot anjumani va boshqa PR tadbirlari haqida tasavvurga ega e'lon qilgan 10-20 ta materiallari bor,	
5.	PR va axborot xizmatlari sohasiga ko'p yildan beri qiziqadi, axborot xizmatlariga tashrif buyurgan, ular ishi bilan yaxshi tanish, Axborot xizmati vazifalari va matbuot kotibi faoliyatini misollar orqali tushuntirib bera oladi, PRning jamiyat va tashkilotlar taraqqiyotidagi o'rni va roliga chuqur tavsif bera oladi, Bir qator matbuot kotiblarini taniydi, ularning ijodiga aniq misollar orqali baho bera oladi, PR va jurnalistika sohalarining bog'liq va farqli jihatlari haqida yetarlicha tasavvuri bor, matbuot anjumani va boshqa PR tadbirlari haqida yaxshi tasavvurga ega e'lon qilgan materiallari 20tadan ko'p	26 - 31 ball

Esseni baholash mezonlari: (ballar miqdori – 0 – 62 ball)

Esseni baholash mezonlari: (mazmuni – maksimal 20 ball; imloviy va uslubiy xatolar – maksimal 42 ball)

№	Баллар қўйиш мезонлари:	Максимал баллар
1.	12 tadan ortiq orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarga yo'l qo'yilgan	0 ball
2.	Ish mavzu bo'yicha yozilmagan	0 ball
3.	A) Mavzu sayoz ochilgan, raqam va dalillar yetarlicha keltirilmagan bo'lsa bo'lsa – 3 - 4 ballgacha, abituriyentning mavzu yuzasidan tasavvuri yuzaki, fikrlash doirasi tor bo'lsa, ishda erkin ta'sirli bayon bo'lmasa – 1 – 2 ballgacha; B) orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarning umumiy soni 12 tagacha bo'lsa - 1 - 7 ballgacha, ishda qo'pol uslubiy va imloviy xatolar uchramasa 8 – 12 ballgacha	4 + 12 = 17 балл.
4.	A) Mavzu muayyan darajada ochilgan, raqam va dalillardan biroz foydalanilgan bo'lsa-da, abituriyentning ifodada badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga intilganligi ko'rinib tursa – 7 – 8 ballgacha, tahlil qilishga harakat qilganligi sezilib tursa-yu, ammo tahlilda mantiqiy	8 + 21 = 29 балл.

	<p>xulosalar chiqarishda o'jizligi sezilsa – 5 - 6 ballgacha;</p> <p>B) orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarning umumiy soni 10 tagacha bo'lganda - 13 – 19 ballgacha bo'lgan doirada baholanadi; ishda qo'pol uslubiy va imloviy xatolar uchramasa - 20 – 21 ballgacha;</p>	
5.	<p>A) mavzu ancha teran ochib berilgan, raqam va dalillardan o'rinli foydalanilgan hamda tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarishda iqtidor namoyon etilgan bo'lsa, til va uslubda ravonlik va obrazlilik, fikr-mulohazalarni erkin ifodalash sezilsa - 11–12 ballgacha; mavzu bir oz ochilgan, abituriyentning fikrlashi o'rtadan pastroq, jurnalistikani yaxshi tushunmagani sezilsa – 9 – 10 ballgacha;</p> <p>B) Orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarning umumiy soni 6-9 ta bo'lganda - 23 – 27 ballgacha, ishda qo'pol uslubiy va imloviy xatolar uchramasa - 28 – 29 ballgacha bo'lgan doirada baholanadi;</p>	12 + 29 = 41 балл.
6.	<p>A) mavzu ancha teran ochib berilgan, raqam va dalillardan o'rinli foydalanilgan, tahlil va mustaqil umumlashmalar chiqarishga intilish, mavzuni ochishda, mantiqiy fikrlashda harakat ko'zga tashlansa, til va uslubda ravonlik, obrazlilik, fikr-mulohazalarni erkin ifodalash ko'rinib tursa, ayrim mualliflarning mazkur mavzu yuzasidan bildirgan fikrlari mantiqli dalillar bilan rad etilsa yoki tanqid qilingan bo'lsa - 15 – 16 ballgacha; dalillar biroz yetishmasa, uslubda oqsashlar uchrasa, tahlil u qadar teran bo'lmasa - 13 – 14 ballgacha doirada baholanadi.</p> <p>B) ishda uslubiy va imloviy jihatdan uncha muhim bo'lmagan xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, ijodiy insho – 30 - 33 ballgacha; orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarning umumiy soni - 4-5 ta bo'lganda - 34 – 35 ballgacha bo'lgan doirada baholanadi;</p>	16 + 35 = 51 балл.
7.	<p>A) mavzu teran va har tomonlama ochib berilgan, raqam va dalillardan mahorat bilan foydalanilgan, mantiqiy, tahliliy xulosalar, umumlashmalar chiqarish qobiliyati yaqqol namoyon bo'lgan bo'lsa, til va uslubda ravonlik, obrazlilik, fikr-mulohazalarni erkin, aniq ifodalash ko'rinib tursa, mazmunga mos shakl tanlangan, ijodiy ishda o'rinli tarzda tanqidiy mulohazalar bildirilgan bo'lsa, mazmuni ochishda abituriyentning mustaqil fikrlash qobiliyati aniq ko'rinib tursa - 19 – 20 ballgacha; ishda umumiy xulosalar yetishmasa, fikrlarni umumlashtirishda mantiq oqsasa, fikrlar sintezi kamroq bo'lsa - 17 – 18 ballgacha baholanadi.</p>	20 + 42 = 62 балл.

<p>B) Ishda uslubiy va imloviy xatolar uchramasa, ijodiy insho - 40 - 42 ballgacha bo'lgan doirada baholanadi; orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarning umumiy soni 3-4 ta bo'lsa – 36 - 39 ballgacha baholanadi.</p>	
--	--

Ijodiy imtihon bosqichlarida to'plangan ballar umumlashtirilib, yagona ball sifatida qaydnomaga kiritiladi. Qaydnoma belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, mas'ul kotib yoki uning muoviniga takdim etiladi.

Ijodiy imtihon natijalarini apellyatsiya qilish tartibi

Ijodiy imtihon bosqichlari natijalari bo'yicha apellyatsiyaga arizalar faqat imtihon bosqichlari natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat mobaynida qabul qilinadi.

Murojaat mazmunida faqat o'zining ijodiy ishi va ballari xususida e'tiroz bo'lsa, qabul qilinadi. Lekin boshqa abituriyentlar ishlari va ballari haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Esse yozilgan daftar rasmiy hujjat sifatida belgilangan muddatgacha saqlanadi. Undan shaxsiy maqsadlarda nusxa olish, uni suratga tushirish va imtihonlar o'tkazilayotgan hududdan olib ketish mumkin emas.

Apellyatsiya qilish jarayonida abituriyentga qo'shimcha savol berishga ruxsat berilmaydi.

Ijodiy imtihonda olingan bahoni o'zgartirish faqat fan bo'yicha komissiyaning roziligi bilan va faqat apellyatsiya qiluvchi abituriyent ishtirokida oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Ijodiy imtihonning og'zaki suhbat natijalari apellyatsiyada qayta ko'rib chiqilmaydi.

Ijodiy imtihon o'tkazilishiga qadar apellyatsiyaga ariza berish va uni ko'rib chiqish tartiblari abituriyentlar e'tiboriga yetkaziladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovozi berish orqali qabul qilingan) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son). // www.lex.uz 15.06.2023.

2. 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi. // <https://www.lex.uz> 7.02.2017.

3. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi // <https://lex.uz/docs/5841063>, 28.01.2022.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., “O'zbekiston”, 2016.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., “O'zbekiston”, 2017.
6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., “O'zbekiston”. 2017.
7. Mirziyoev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga // “Xalq so'zi” gazetasi 2018 yil 27 iyun.
8. Mirziyoev Sh.M. BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi. 2021 yil 22 fevral.
9. Blek S. Vvedenie v pablik rileyshnz. – M., “Feniks”, 1998.
10. Do'stmuhammad X. Jurnalist bo'lmoqchimisiz? – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
11. Jabborov Sh. O'zbekistonda kim yaxshi yashaydi. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
12. Toshev F. Jurnalistning noni qattiq. – Toshkent, 2009.
13. Nishonova G., Shukurova G., Qosimova N. va boshq. Zamonaviy media muhitda RR-xizmatlar. J.VIII. – T., “O'zbekiston”, NMIU, 2019. 512-b.
14. Qosimova N. Axborot xizmatlari uchun amaliy qo'llanma:jamoatchilik bilan samarali muloqot. – T., “BAKTRIYA PRESS”, 2014.
15. Muminov F. Pablik rileyshnz: istoriya i teoriya. T.: Ijod dunyosi, 2004, 32-b.
16. Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida <https://lex.uz/docs/4390513>.